XALQ DEPUTATLARI MIRISHKOR TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 12 - mart VI-32-33-4-63-K/22 Mirishkor tuman hokimligi

Mirishkor tumanidagi qishloqlar ko‘chalariga va yangidan tashkil topgan ko‘chalarga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011 yil 12 oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y., 41-son, 448-modda; 2017 yil., 35-son, 914-modda)ning 10-moddasi, Mirishkor tumani komissiyasining geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha 2021 yil 30 oktabrdagi B-94-sonli yig‘ilish bayoni hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Mirishkor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman komissiyasining geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha 2021 yil 30 oktabrdagi B-94-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mirishkor tumanidagi qishloq va mahalla fuqarolar yig‘inlari hududidagi qishloqlar ko‘chalariga, shuningdek, yangidan tashkil topgan ko‘chalarga tavsiya qilingan nomlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (U.Cho‘liyev) ga bir hafta muddatda tuman hududidagi yangidan nomlangan geografik obyektlarning nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

4. Mirishkor tumanidagi mahalla fuqarolari yig‘inlari raislariga ko‘chalarga yangi nomlar berilishi munosabati bilan aholi o‘rtasida tashviqot-targ‘ibot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (M.Bo‘riyev) nom berilgan hududlarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Yagmurov) hamda tuman hokimining o‘rinbosari (U.Cho‘liyev) zimmalariga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror tuman hokimligi rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.
8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **Sh.Ch.Sanayev**

Xalq deputatlari Mirishkor tuman
Kengashining
2022 yil 12 martdagi
VI-32-33-4-63-K/22-son qaroriga
1-ilova

Mirishkor tumanidagi qishloq va mahalla fuqarolar yig‘inlari hududidagi qishloqlar ko‘chalariga, shuningdek, yangidan tashkil topgan ko‘chalarga tavsiya qilingan nomlar ro‘yxati

T/r	**Geografik obyektning turi**	**Joylashgan o‘rni**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif**	**Eksper komissiyasining xulosasi**
1	Ko‘cha	Yangi Mirishkor mahallasi	Abu Rayxon Beruniy	Huvaydo	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Ko‘cha	Qumbangi mahallasi	Zarafshon	Mualimlar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq